

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

MAY, 2026-YIL





O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

ISBN 978-9910-8337-6-2

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 8-may

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-8337-6-2

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Мадаминов Рахматилло

ПРИГОТОВЛЕНИЕ ПИТАТЕЛЬНЫХ СРЕД ДЛЯ БАКТЕРИЙ И ГРИБОВ 5-7

TARIX FANLARI

Qirg'izov Baxtiyor

FARG'ONA VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLARNI AYRIMLARINING TARIXI VA ULAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR TAHLILI8-12

IQTISODIYOT FANLARI

Mirzayev Shoxrux

KON-METALLURGIYA SANOATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MEGA INVESTITSIYA LOYIHALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR 13-15

Aliqulov Abbos

ARALASH MA'LUMOTLAR ASOSIDA REGRESSIYA MODELLARINI BAHOLASHDAGI YASHIRIN SEGMENTLAR MUAMMOSI 16-22

FALSAFA FANLARI

Boyxonov Umidjon

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARI USTUVORLIGI KONSEPSIYASINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 23-28

FILOLOGIYA FANLARI

Isomidinova Zilola

RAQAMLI OAVDA MUALLIFLIK HUQUQI MUAMMOLARI 29-31

Raximjoniva Nozima

ZAMONAVIY MEDIA MAKONIDA TURIZM KONTENTINING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 32-35

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DIPLOMATIK LEKSIKANING SEMANTIK XUSUSIYATLARI 36-39

YURIDIK FANLAR

Мухиддинова Эльзода

ИНСТИТУТ НЕДОПУСТИМОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ: ОБОСНОВАНИЕ НЕЗАВИСИМОСТИ И ОБОСОБЛЕННОСТИ ОТ ДРУГИХ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ 40-43

Хайдарова Хилола

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ЦИФРОВЫХ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА 44-48

Shorasulova Gulnoza

RAQAMLI KRIMINALISTIKA TUSHUNCHASI VA UNING QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI 49-54

PEDAGOGIKA FANLARI

Nizomova Bashoratxon, Mirazamova Mahliyo

ZOOLOGIYA TA'LIMIDA TAYANCH BELGILAR (SXEMA, JADVAL, GRAFIK) VA MULTIMEDIA
TAQDIMOTLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 55-58

Xaydarova Namunaxon

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN
MEXANIZMNI ISHLAB CHIQISH 59-61

Adamatov Anvar

KOREYA TA'LIM TIZIMIDAGI PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNING GLOBAL TA'LIM
KONTEKSTIDAGI AHAMIYATI 62-65

SIYOSIY FANLAR

Xolmatov Saidbek

ERON ISLOM RESPUBLIKASINING MINTAQAVIY STRATEGIYASI VA SURIYA OMILINING
GEOSIYOSIY AHAMIYATI 66-69

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DIPLOMATIK LEKSIKANING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Isanova Feruza Tulqinovna

Toshkent davlat agrar universiteti, o'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: isanovaferuza2909@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-0281-7977>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi diplomatik leksikaning semantik xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil qilinadi. Diplomantik diskursning funksional tabiati uning leksik tizimida neytrallik, evfemizm, noaniqlikni yumshatish, baholovchi semalarning yashirin ifodasi hamda pragmatik moslashuv kabi xususiyatlarning faol namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Tadqiqotda diplomatik terminlar, rasmiy formulalar, siyosiy bayonotlar va xalqaro muloqotga xos leksik birliklar semantik jihatdan o'rganildi. Qiyosiy tahlil natijalari ingliz va o'zbek diplomatik leksikasida umumiy kommunikativ vazifalar saqlangan holda, ularning uslubiy va madaniy ifodalanishida farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Maqolada diplomatik birliklarning tarjima jarayonidagi semantik ekvivalentligi masalasi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: diplomatik leksika, semantika, diplomatik diskurs, evfemizm, pragmatika, konnotatsiya, qiyosiy tilshunoslik, o'zbek tili, ingliz tili.

SEMANTIC FEATURES OF DIPLOMATIC LEXICON IN UZBEK AND ENGLISH

Isanova Feruza Tulqinovna

Lecturer, Tashkent State Agrarian University

Independent Researcher, University of World Economy and Diplomacy of Uzbekistan.

Annotation. This article analyzes the semantic features of diplomatic lexis in Uzbek and English from a comparative perspective. The functional nature of diplomatic discourse causes such features as neutrality, euphemism, mitigation of ambiguity, the implicit expression of evaluative semes, and pragmatic adaptation to manifest actively in its lexical system. The study semantically examines diplomatic terms, formal expressions, political statements, and lexical units characteristic of international communication. The results of the comparative analysis show that, while the general communicative functions of diplomatic lexis in English and Uzbek are preserved, there are differences in their stylistic and cultural expression. The article also highlights the issue of semantic equivalence in the translation process of diplomatic units.

Keywords: diplomatic lexis, semantics, diplomatic discourse, euphemism, pragmatics, connotation, comparative linguistics, Uzbek language, English language.

KIRISH.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari natijasida davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar sezilarli darajada kengaymoqda. Ushbu jarayonlarda xalqaro huquqning roli tobora ortib bormoqda. Xalqaro huquq normalarining to'g'ri talqin qilinishi va qo'llanilishi esa, avvalo, ushbu sohada qo'llaniladigan terminlarning aniq va to'g'ri tushunilishiga bog'liqdir. Shu sababli xalqaro huquq terminologiyasining lingvistik jihatdan o'rganilishi dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi [13].

Xalqaro huquq sohasiga oid leksik birliklarning tarixiy manbalari va hozirgi rivojlanish bosqichini o'rganish o'zbek tilining xalqaro huquqiy tafakkurni ifodalashdagi o'ziga xosligini anglashda beqiyos o'ringa ega [14].

Diplomatiya xalqaro munosabatlarning eng nozik va mas'uliyatli sohalaridan biri bo'lib, unda til vositasi siyosiy muvozanatni ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Diplomatik muloqotda har bir leksik birlikning tanlovi, uning semantik yuklamasi va pragmatik ta'siri alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan diplomatik leksika nafaqat axborot uzatish, balki ma'lum siyosiy pozitsiyani ehtiyotkorlik bilan ifodalash, keskinlikni yumshatish va murosa imkoniyatini saqlash vazifasini bajaradi [1; 3; 8].

Diplomatik nutqning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda to'g'ridan-to'g'ri, keskin yoki emotsional bo'yoqli ifodalardan ko'ra, neytral va yumshatilgan birliklar ko'proq qo'llanadi. Bunday birliklar ko'pincha evfemistik ma'no, noaniqlikni bildiruvchi konstruktsiyalar, ijobiy baholovchi iboralar hamda rasmiy uslubga xos qoliplashgan birikmalar orqali ifodalanadi [2; 4; 5]. Shu sababli diplomatik leksikaning semantik xususiyatlarini o'rganish lingvosemantika, pragmatika va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan muhim ilmiy masaladir.

Mazkur maqolaning maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi diplomatik leksikaning semantik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda diplomatik tarjimada semantik moslik masalasini yoritishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari diplomatik leksikaning nazariy asoslarini yoritish; diplomatik birliklarning semantik xususiyatlarini aniqlash; o'zbek va ingliz tillaridagi diplomatik ifodalarni qiyoslash; tarjima jarayonida semantik va pragmatik ekvivalentlikni ko'rsatishdan iborat.

METOD.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod, semantik tahlil, komponent tahlil, kontekstual tahlil va lingvopragmatik yondashuvdan foydalanildi. Material sifatida xalqaro diplomatik hujjatlar, rasmiy bayonotlar, siyosiy nutqlar, diplomatik muzokara matnlari hamda tarjima amaliyotida uchraydigan leksik birliklar tanlab olindi.

Tahlil quyidagi yo'nalishlarda olib borildi: diplomatik birliklarning denotativ va konnotativ ma'nosi; evfemistik va neytral ifoda vositalari; noaniqlik va ehtiyotkorlikni bildiruvchi semantik modellari; baholovchi va pragmatik semalarning yashirin ifodalanishi; ingliz va o'zbek tillari o'rtasida semantik ekvivalentlik darajasi.

Qiyosiy tahlilda har ikki tilning diplomatik nutqida uchraydigan tipik birliklar, jumlar va formulalar semantik nuqtayi nazardan solishtirildi. Bunda so'zma-so'z tarjima emas, balki vazifaviy va mazmuniy muvofiqlik asosiy mezon sifatida olindi.

NATIJALAR.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diplomatik leksika o'zining semantik tuzilishiga ko'ra oddiy so'z boyligidan farq qiladi. U birinchi navbatda neytrallik, rasmiylik va ehtiyotkorlikka asoslanadi. Ingliz tilidagi constructive dialogue, mutual respect, peaceful settlement, strategic partnership kabi birliklar o'zbek tilida konstruktiv muloqot, o'zaro hurmat, tinch yo'l bilan hal etish, strategik sheriklik tarzida ifodalanib, mazmunan ijobiy va murosaviy semalarni tashiydi.

Diplomatik diskursda evfemistik ifoda keng qo'llanadi. Masalan, ingliz tilidagi differences of opinion, concern, sensitivity, challenging situation kabi birliklar ochiq ziddiyat yoki norozilikni bevosita bildirmaydi, balki uni yumshoq va diplomatik shaklda ifodalaydi. O'zbek tilida esa qarashlardagi farqlar, tashvish bildirish, nozik masala, murakkab vaziyat kabi ifodalar shu funksiyani bajaradi.

Bundan tashqari, diplomatik leksikada noaniqlik semantikasi muhim o'rin egallaydi. Ingliz tilidagi *may consider, could be discussed, it is expected, we look forward to* kabi birliklar qat'iy majburiyatni emas, balki ehtimollik, mulohazalilik va muloyimlikni bildiradi. O'zbek tilidagi ko'rib chiqilishi mumkin, muhokama qilinishi ehtimol, kutilmoqda, samimiy umiddamiz kabi shakllar ham ayni shu semantik vazifani bajaradi.

Tahlil davomida diplomatik birliklarning yashirin baholovchi semalari ham aniqlandi. Masalan, *positive development, important progress, constructive step* kabi iboralar ijobiy bahoni ifodalasa, *concern, issue, challenge* kabi birliklar bevosita tanqid emas, balki ehtiyotkor baholashni anglatadi. O'zbek tilida ijobiy siljish, muhim qadam, dolzarb masala kabi formulalar shu semantik yo'nalishni aks ettiradi.

Qiyosiy jihatdan qaraganda, ingliz diplomatik leksikasi ko'proq standartlashgan, formula tusini olgan konstruksiyalarga tayansa, o'zbek diplomatik nutqida hurmat, odob va muloyimlik kategoriyalari kuchliroq namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi *We appreciate your cooperation* jumlasini o'zbek tilida *Sizning hamkorligingizni qadrlaymiz deb* beriladi; *We express our concern* esa *Biz o'z tashvishimizni bildiramiz* tarzida tarjima qilinadi. Bu misollar diplomatik leksikada semantik ekvivalentlik bilan birga pragmatik uyg'unlik ham zarurligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA.

Diplomatik leksikaning semantik tabiati uning kommunikativ vazifasi bilan uzviy bog'liq. Diplomatik nutqning asosiy maqsadi shunchaki axborot berish emas, balki siyosiy pozitsiyani ehtiyotkorlik bilan ifodalash, muzokara uchun qulay muhit yaratish va ziddiyatlarni keskinlashtirmaslikdir [1; 3; 8]. Shu sababli diplomatik birliklarda denotativ ma'no bilan bir qatorda pragmatik niyat ham muhim rol o'ynaydi [2; 4].

O'zbek va ingliz tillaridagi diplomatik leksika qiyoslanganda, ularning umumiy semantik yo'nalishi bir xil ekanligi ko'rinadi: har ikkala tilda ham neytrallik, murosaviylik, ijobiy baholash, ehtiyotkorlik va yumshatish strategiyalari ustunlik qiladi [5; 8; 12]. Biroq ushbu umumiylik har bir tilning milliy nutq madaniyati orqali turlicha shakllanadi. Ingliz diplomatik diskursida rasmiy, aniq va qoliplashgan strukturalar keng qo'llansa, o'zbek tilida hurmat ifodalovchi birliklar, muloyim murojaat shakllari va odob kategoriyasi kuchliroq seziladi [9; 12].

Diplomatik tarjimada eng muhim jihatlardan biri semantik moslikni saqlashdir. So'zma-so'z tarjima ko'pincha diplomatik matnning uslubiy va pragmatik kuchini pasaytirishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *concern* so'zi oddiy "xavotir" deb emas, balki diplomatik diskursda "ehtiyotkor norozilik" yoki "yumshoq tanqid" sifatida talqin qilinishi kerak [3; 4]. Xuddi shuningdek, o'zbek tilidagi e'tiborga olamiz, qayd etamiz, tashvish bildiramiz kabi formulalar ham faqat lug'aviy emas, balki pragmatik ma'noda to'g'ri talqin qilinishi lozim [6; 10].

Shunday qilib, diplomatik leksikani o'rganish nafaqat semantik tahlil, balki lingvokulturologik va pragmalingvistik yondashuvni ham talab etadi. Bu esa mazkur soha birikmalarining tarjima, rasmiy muloqot va xalqaro kommunikatsiyadagi ahamiyatini yanada oshiradi [2; 7; 12].

XULOSA.

O'zbek va ingliz tillaridagi diplomatik leksika semantik jihatdan murakkab va ko'p qatlamli tizimni tashkil qiladi. Tadqiqot natijalari diplomatik birliklarning asosiy semantik

xususiyatlari sifatida neytrallik, evfemizm, ehtiyotkorlik, noaniqlikni yumshatish va yashirin baholovchi ma'noni ko'rsatdi [1; 2; 4]. Bu xususiyatlar diplomatik nutqning murosa, muloqot davomiyligi va siyosiy muvozanatni saqlashga qaratilgan funksiyasini ta'minlaydi [3; 8].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek diplomatik leksikasining semantik asoslari o'xshash bo'lsa-da, ularning uslubiy ifodalanishi milliy til madaniyati bilan bevosita bog'liqdir [9; 12]. Ingliz tilida standartlashtirilgan diplomatik formulalar ko'proq qo'llansa, o'zbek tilida hurmat, muloyimlik va odobga asoslangan ifodalar ustunlik qiladi.

Demak, diplomatik matnlarni tahlil va tarjima qilishda semantik ekvivalentlik bilan bir qatorda pragmatik, uslubiy va madaniy moslikni ham hisobga olish zarur. Kelgusida diplomatik diskursning kognitiv, pragmatik va lingvokulturologik jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish mazkur yo'nalishda yangi ilmiy natijalar olish imkonini beradi [6; 7; 12].

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. - Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
2. Cruse D. A. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. - Oxford: Oxford University Press, 2011.
3. Lyons J. Semantics. - Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
4. Leech G. Semantics: The Study of Meaning. - London: Penguin Books, 1981.
5. Palmer F. R. Semantics. - Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
6. Newmark P. A Textbook of Translation. - London: Prentice Hall, 1988.
7. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. - Leiden: Brill, 1969.
8. Halliday M. A. K., Matthiessen C. An Introduction to Functional Grammar. - London: Routledge, 2014.
9. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Universitet, 2006.
10. Rahimov X. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: O'zbekiston, 2018.
11. Mirzayev M., Iskandarova Sh. O'zbek tili semasiologiyasi. - Toshkent: Fan, 2010.
12. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent: Akademnashr, 2013.
13. Isanova, F. (2026). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI: QIYOSIY TAHLIL. *Humansciences: Journal of Humanities*, 2(4), 32-41. <https://doi.org/10.47390/hum-i4v2y2026/n06>
14. Isanova, F. (2026). O'ZBEK TILIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING TARIXIY KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISHI. *Lingvosience.Uz: Lingvistika va Madaniyatshunoslik Fanlarining Dolzarb Masalalari*, 2(3), 13-18. <https://doi.org/10.47390/LS2025V2I3Y2026N02>
15. Isanova, F. (2026). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI. YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR, 2(8), 72-77. <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n16>

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-may

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
– Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 8-may

ISBN 978-9910-8337-6-2

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.